

**“USTOZ-SHOGIRD” MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA
SHARQ MUTAFAKKIRLARI IJODIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY
ASOSLARI**

Muyidinova Gulbahor Yuldash qizi

*Navoiy davlat universiteti Pedagogika nazaryasi va tarixi
mutaxassisligi 2-kurs magistranti,
gulbahor20011711@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq allomalari — Forobiy, Al-Marg‘inoniy, Voiz Koshifiyning boy ilmiy-ma’naviy merosi asosida ustoz-shogird munosabatlarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Ustoz-shogird an‘anasi, Forobiy, Al-Marg‘inoniy, Voiz Koshifiy,

Annotation: This article analyzes the pedagogical conditions for developing teacher-student relationships based on the rich scientific and spiritual heritage of Eastern scholars such as Al-Farabi, Marg‘inoniy, Voiz Koshifiy

Keywords: Teacher-student tradition, Al-Farabi, Marg‘inoniy, Voiz Koshifiy

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda yangi tahrirdagi 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy ta’lim konsepsiyasi”ning qabul qilinishi bilan ta’lim sohasidagi muhim strategik yo‘nalishlar belgilab berildi. Mazkur strategik yo‘nalishlar asosida kadrlar tayyorlash sifatini yanada yuksaltirish, kasbiy jihatdan raqobatbardosh, ma’naviyatli, milliy qadriyat va an‘analarga sodiq, Vatan tuyg‘usi singdirilgan komil insonni tarbiyalashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi davrda tajribaning ko‘rsatishicha “Ustoz-shogird” munosabatlarini yo‘lga qo‘yish va takomillashtirishda Sharq mutafakkirlari ta’limotidan foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi -bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi ajdodlar-imizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat.²²

²² Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” – Toshkent: O‘zbekiston . 2022.

Shundan kelib chiqib, xalqimiz tarixidagi “ustoz-shogird” tizimining uzoq tarixini hisobga olib, sharqning buyuk allomalari pedagogic qarashlarida mazkur mavzuning yoritilganligiga e’tibor qaratdik.

Mazkur mavzu bo’yicha quyida buyuk mutaffakkirlarimizning qarashlarini bayon etamiz. Forobiy “Falsafani o’rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida” risolasida muallim shogirdiga nisbatan o’ta hokimlikka ham, o’ta bo’shanglikka ham yo’l qo’ymasligi kerak, chunki o’ta hokimlik shogirdga “muallimga nisbatan nafrat uyg’otsa, o’ta bo’shanglik esa shogirdning muallimga va uning o’qitayotgan faniga nisbatan mensimaslik xislatini paydo qiladi”, deb ta’kidlaydi.

Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati» asarida yozadi²³: Bilgilik, tariqat yo’lining qaroqchilari ko’pdir, ular nodon va kalta fahmlarni xiyla –nayrang donosi bilan makru firib domiga tushirish payidadirlar. Shuning uchun rahnamo bo’la oladigan, pirlilik (shayxlik) shart – sharoiti va ruknlari (asoslari)ni yaxshi biladigan odamni pir, deb tanlash lozim.

Pir muridi (shogirdi) ning tariqat bo’yicha har turli savollariga, qiyinchiliklariga javob berishi, uning mushkilotini osonlashtirishi kerak bo’ladi. Ustoz (pir) o’z so’zida, ahdiga turadigan va tariqat qoidalarini saqlashda sobit qadam, shogird tarbiyasini maromida olib boradigan inson bo’lishi lozim. O’z navbatida saxiy, shogirdga har tomonlama moddiy va ma’naviy yordam bera oladigan, so’zida qat’iy turadigan shaxs bo’lishi kerak. Ustozlik qiladigan pir pok va pokdoman, xayoli – diyonatli, oliyhimmat va ta’magirlik illatlaridan xoli bo’lmog’i darkor. Pir mushfiq – mehribon, murid (shogird) dan marhamatini darig’ tutmaydigan, halim, bosiq va kechirimli bo’lishi muhimdir. Eng muhimi mohir murabbiy bo’lib, “muridni tarbiyalay olsin”. Pir “muridga asta – sekin, oxista ta’sir etib, uni o’z irodasiga bo’ysundirsin”. Pir o’zining xush-xulq, odob – axloqi chuqur bilimi bilan murid qalbiga yo’l topib, toki murid ham uning hoziru g’oyibida hurmatini birday saqlaydigan bo’lsin»

Al-Marg’inoniy ustozni qattiq hurmatlashni uqtiradi. U o’zining ustozlarini "Kitob ul-mashoyix" asarida yodga olib, hurmat izhor qilgani ham shundan dalolat beradi. "Ustozimiz, shayx ul-islom Burhonuddin hikoya qiladilarki, - deb yozadi bu haqda uning shogirdi az-Zarnujiy, - Buxoroning ulug’ imomlaridan biri dars aytayotib, goh o’tirar va goh o’rnidan turar edi. Buning sababini so’radilar. Aytdi: "Ustozimning o’g’li ko’chada bolalar bilan o’ynar edi va ba’zida masjid eshigiga

²³ Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniyy; Axloqi muhsiniy. –T.: "O’zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. -376 bet

yaqinlashib kelardi. Har gal uni ko'rganimda ustozimga nisbatan bo'lgan hurmat tufayli o'rnimdan turardim".

Forobiy ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish usullarini ko'rsatgan. Bu har ikkala usul ham insonni har tomonlama kamolga etkazish maqsadida qo'llanilgandir.

Shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya birligini ta'minlashda ustoz va shogird munosabatlari hal qiluvchi omildir. Bu masalaga, ayniqsa, Sharkda juda katta e'tibor berilgan. Musulmon olamida mavjud an'anaga ko'ra, ustoz shogirdni qabul qilgan birinchi kundan boshlab, uning ma'naviy javobgarligini o'z bo'yniga olgan. Tarbiyalanuvchining ota-onasi o'z bolasini ustozga: "Eti sizniki, suyagi bizniki" deb topshirgan. Ustoz shogirdga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki u shogirdiga keng ma'nodagi tarbiyani ham beradi.

Shuni e'tirof etish joizki pedagogik adabiyotlarda "Ustoz-shogird" munosabatlari to'g'risida ko'plab fikrlar, mulohazalar bayon etilgan. Ularni yagona tizimga keltirish, muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan Forobiy o'qituvchining ijtimoiy hayotda o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ibratli g'oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, o'qituvchi o'quvchiga bilim beraman desa, o'quvchi oldida haqiqatgo'y bo'lishni, yolg'onni va yolg'on aytganni yomon ko'rishi, o'zi fahm-farosatli bo'lishi va or-nomusini qadrlashi, shogirdlariga nisbatan adolatli bo'lishi, ko'zlangan maqsadga erishishda qat'iylik ko'rsata bilishi va o'rnak bo'lmog'i lozim.

Uning «Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati» asari pand-nasihat tarzida bo'lib, yuqori mahorat va axloqiy talablariga mos yozilgan. Unda muallif X asrda qadimiy Xurosan, Movarounnahr shaharlarida keng yoyilgan javonmardlik yoki futuvvatchilik harakatining muayyan qoida-talablari, ma'naviy-jismoniy va axloqiy etuklik asoslarini insonlarning birgalikdagi yashashlari jarayonida rioya qilishlari lozim bo'lgan talablarini bayon etadi. Futuvvatchilar qaerda bo'lmasinlar, nima ish qilmasinlar, mardlik va olijanoblik namunasini ko'rsatar, zulm va haqsizlikka qarshi kurashdilar. «Murid » so'zining ma'nosi istovchi, xohlovchi degan ma'nolarni beradi, deb yozadi adib. Chunonchi, "botinda xohish bo'lmasa, zohirda hech bir amal ko'zga tashlanmagan». Javonmardlik tariqatiga kirish yoki pirga murid bo'lish shunchaki bir jo'n narsa emas, balki ma'lum talab va sifatlarga ega bo'lgan kishigina murid bo'lishi mumkin. Koshifiy o'z asarida muridning xislatu-sifatlarini birma-bir bayon qiladi.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, qadimda ajdodlar «Ustoz-shogird odobi» asosida yoshlarga hunar o'rgatish bo'yicha boy tajribaga ega bo'lishgan. Lekin, keyingi vaqtlarda ularning boy merosidan hamda tajribalaridan ta'lim-tarbiya muassasalarida keng va to'liq foydalana olinmayapti. Buning sabablaridan biri – «Ustoz-shogird odobi» an'alarini chuqur o'rgatilmayotganligidadir.

«Ustoz-shogird odobi» an’analari o’ldirish uchun ajdodlar tajribalari yoritilgan adabiyotlarni ham etarli deb bo’lmaydi. Bundan tashqari ularning boy tajribalarini hozirda hunar o’rgatilayotgan joylarda, chunonchi o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida, shaxsiy usta-shogird asosida o’rgatilayotgan ustaxonalarda «Ustoz-shogird odobi» an’analari to’liq o’rgatilmayligi o’quvchi-yoshlarning axloqi, odobi va bilim darajasi, umuman ularning ma’naviyati shakllanishi ma’lum darajada to’liq bo’lmayapti. Shuning uchun ham ajdodlar tomonidan qoldirilgan oid an’analari va ma’naviy merosdan to’g’ri, oqilona va unumli foydalanish lozim.

Bu kamchiliklarni bartaraf etishda ajdodlarning qoldirgan ma’naviy xazinalaridan o’rinli foydalanib, yoshlarga kasb-hunar o’rgatish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Resolution No. 1059 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 31, 2019 on the "Concept of Continuous Spiritual Education" // <https://lex.uz/docs/-4676839>
2. Prezident Islom Karimov 2014 yil 15-may kuni Samarqand shahrida bo’lib o’tgan “O’rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy tsivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferentsiyasining ochilish marosimidagi so’zlangan nutqi.
3. Bulatov S.S., Nasriddinov J.B., Abduxonov B.X. Kasb-hunar kollejlari uchun “Ustoz va shogird” an’analari foydalanish metodikasi. –T., 2008
4. Pedagogika tarixi (oliy o’quv yurtlari uchun darslik) A.Zunnunov, M.Xayrullaev va b. –T.: Sharq, 2000. -240 b.
5. Jumaniyozov M. Ustoz-shogird an’analari. Uslubiy qo’llanma. Urganch, 2010.
6. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniyy; Axloqi muhsiniy. –T.: “O’zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. -376 bet
7. Rahmonov M., Jabborov N. Markaziy Osiyoda Renessans davrida falsafiy fikrlarning rivojlanishi. Navoiy
8. Bulatov S., Gulomov S. Sharqona ustoz-shogird odobi. – Toshkent, 2000. – 62 b.
9. Pedagogika entsiklopediya. O’zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -T., 2015.